



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA NASR

**Mahmatqulova
Sug'diyona**

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyotining hozirgi kundagi ahamiyati, rivojlanish darajasi va bu yo'nalishda ijod qilayotgan insonlarga alohida to'xtaldi. Umuman olib qaraganda, hozirgi davrda biroz bolalar adabiyoti susaygan. Ammo shunga qaramasdan, bu janrda serqirra ijod qilayotgan ijodkorlarimiz ham alohida ajralib turishadi. Shulardan biri Rahmatulla Barakayevdir. Maqolada Rahmatulla Barakayev hayoti va ijod yo'llarini ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Olim, shoir, shogird, Rahmatulla Barakayev, bolalar qalbi, yurt ravnaqi, ilmiy, ilmiy-ommabop, maqola, dissertatsiya

Аннотация: В данной статье рассматривается современное значение детской литературы, уровень её развития и люди, работающие в этой области. В целом, детская литература в последнее время несколько утратила свою актуальность. Однако, несмотря на это, наши творцы, активно работающие в этом жанре, также выделяются. Одним из них является Рахматулла Баракаев. В статье исследуется жизнь и творческий путь Рахматуллы Баракаева.

Ключевые слова: Ученый, поэт, студент, Рахматулла Баракаев, детские сердца, процветание страны, наука, популярная наука, статья, диссертация

Abstract: This article focuses on the current importance of children's literature, its level of development, and the people who work in this field. In general, children's literature has somewhat declined in recent times. However, despite this, our creators who are actively working in this genre also stand out. One of them is Rahmatulla Barakayev. The article examines the life and creative path of Rahmatulla Barakayev.

Keywords: Scientist, poet, student, Rahmatulla Barakayev, children's hearts, prosperity of the country, scientific, popular science, article, dissertation

KIRISH

Bolalar adabiyoti boshqa bir janrlardan farqi shundaki, hamma shoir ham yoki hamma yozuvchi ham bolalar shoiri bo'la olmaydi. Nega desangiz, bolalar yozuvchisi, bolalar shoiri bo'lish uchun bolalarning qalbini his qila bilish, ularning hatti-harakatlarini kuzatib, buni anglash lozimdir. Bolalar bejizga kichik donishmandlar deyilmaydi. Ular doim nimadirlarni bilishga, fikrlashga harakat qilishadi. Yozuvchi esa ulardagi bu tuyg'ularni voqealikda aks ettirishi uchun albatta buni his qila bilishi

kerak. Hozirgi kun adabiyotshunosligining barcha janrlarining susayotganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki, 21-asr texnologiya rivojlanganligi sababidan, o'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish susaymoqda. Buni to'g'irlashning birgina yo'li bor. Bu ham – muhit. Chunki farzand kichik yoshligida oilada qanday muhitda katta bo'lsa, kelajakda huddi shu muhitda olgan tarbiyasi bilan yashaydi. Biz farzandlarimizga yoshligidan kitobga bo'lgan qiziqishlarini orttirishimiz, kitob mutolaasiga jalb qilishimiz va uyda ham shu muhitni yaratib berishimiz kerak.

ASOSIY QISM

Dunyo bo'yicha yozuvchi va shoirlar soni ko'p. Ularning harqaysilari har xil janrlarda faoliyat olib borishadi. Kimdir nasrda, kimdir nazmda. Ammo bolalar adabiyotida asarlar yaratgan yozuvchilar soni oz deb o'ylayman. Bola bu beg'ubor. Uning har bir tilidan chiqqan so'zda qancha umid, qancha ,ma'no bor. Bugungi kunda bolalar adabiyotida faoliyat olib borayotgan Rahmatulla Barakayev hayot yo'llari va ijodlari juda ham qiziq. Rahmatulla Barakayevning ijodiy faoliyatlarini o'rgana turib, Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga to'xtalganliklarini ko'rdim. Men ham albatta, ularning fikrlariga qo'shilaman. Nega hozirgi kunda yoshlar bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi past, hamma moddiyat izidan quvgan yoki kattani hurmat, kichikni esa izzat qilishni bilishmaydi. Bir tomondan bunga oilani ayblashimiz mumkin, ammo eng katta sabablardan yana biri jamiyat ham deb bilaman. O'tmishda, maktablarda dars berilganda tarbiya, odob darslari yuqori guruhlarga qadar o'tkazilgan. O'quvchilar har doim ilm olish bilan mashg'ul bo'lishgan. Shuning uchun ham avvallari Buxoriy, Termiziyalar chiqqan.

Rahmatulla Barakayev shu kungacha bir qator shogirdlarni ham tayyorlagan. Chunki, bir inson butun boshli janrda ijod qilishi, imkoniyatlarini ochib berishga bo'lgan imkoniyatlari kamlik qiladi. Rahmatulla Barakayev XX asr boshlari o'zbek tarjimachiligi tarixi, adabiy aloqalar va bolalar adabiyoti tarjimalari bo'yicha ham bir qator ilmiy ishlar muallifi hamdir. Shu kungacha yozuvchi tomonidan 260 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, bir nechta kitoblar e'lon qilingani ko'rishimiz mumkin. Bir qator davlatlarda, xususan, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi mamlakatlarda bo'lib o'tgan 30 dan ortiq xalqaro ilmiy anjumanlardagi chiqishlar e'tibor va e'tirofqa sazovordir. Shuning uchun ham R.Barakayev 2000-yilda Bolalar adabiyoti tadqiqot va targ'iboti borasidagi faoliyati uchun 2-darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandi. 2009-yilda katta ilmiy xodim, dotsent unvoni, 2022-yilda esa professor ilmiy unvoniga munosib ko'rildi.

Bolalar adabiyotining bugungi kundagi rivoji, adabiy jarayondagi o'rni, tarixi, badiiyati, hozirgi paytdagi yutuq va kamchiliklari haqida jiddiy tadqiqotlarni amalga oshirayotgan olimlar qatorida R.Barakayevning xizmatlari alohida e'tirofqa loyiq. Bolalarga va o'smirlarga oid asarlarni nashrga tayyorlab, o'zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitishga ulkan hissa qo'shgan R.Barakayev adabiyotshunos sifatida ham o'z so'zini, qarashlari va fikrlarini baralla ayta oldi. Ayniqsa, zamonaviy bolalar adabiyotining tamal toshini qo'ygan yetuk adib va pedagog Abdulla Avloniy ijodiy merosi olim uchun monografik tadqiqot obyektiga aylandi. Obrazi tafakkur imkoniyatlari asosida bolalar ongu tasavvuriga vatanparvarlik, jasorat, sadoqat, iymon, oqibat kabi chin insoniy fazilatlarini ta'sirchan tarzda singdira olgan Abdulla Avloniy

bolalar adabiyotini shakl, mazmun va ifodada yuksak bosqichga olib chiqqani ma'lum. R.Barakayev bir qator shoirlarimiz, yozuvchilarimiz to'plamlarini nashrga tayyorlagan. O'z risola va maqolalarida ularning ijodini o'rganib, tahlil qilgan. "Bolalikning tiyrak nigohi", "Dilda darding bo'lmasa" kabi maqolalarida bolalar adabiyoti va tanqidchiligi oldida turgan dolzarb vazifalarni bayon etadi. R.Barakayev "Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti" o'quv qo'llanmasining bosh muharriri hamdir.

"Ozod vatan saodati" besh jildlik adabiy-tanqidiy to'plamida R.Barakayevning hozirgi zamon yosh avlod bolalari va she'rlari tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan shoirlarimiz she'rlarini tahlil qilib, maqolasiga kiritgan. Masalan uning maqolaga kirtigan quyidagi fikrlariga qaraylik: " Shu o'rinda marhum ijodkor X. Imonberdiyevning "Alla" she'ridagi quyidagi misralar e'tibor tortadi:

– Ana, Bo'ri kelyapti!
 Uxlay qol, ovunchog'im.
 Qo'y shunday deb qo'rqitib,
 Uxlatar qo'zichog'in.
 – Vuy, anovi ilonni!
 Uxla tez, bolajonim, –
 Chumchuq shunday qo'rqitib,
 Uxlatar polaponin.
 – Uxla, Olabujayev
 Ko'rsatgan qorasini. –
 Odam shunday qo'rqitib,
 Uxlatar bolasini.
 Ona Burgut allalar:
 – Uxla, kuchga to'lib o's.
 Ushbu tog'-tosh, osmonning
 Hukmdori bo'lib o's!
 Pisand etmay xatarni
 Shundanmi polaponi,
 Tushlarida charx urar
 To'ldirib keng samoni.

Nazarimizda, ushbu she'r katta tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek bolalar adabiyoti mustaqil O'zbekiston kelajagini yaratuvchi yosh avlod tarbiyasiga mas'ul ekan, farzandlarimiz erksevar, mard, komil insonlar bo'lib yetishuvi yo'lida doimo baland pardalarda yangramog'i kerak. Toki ijodkorlarimizning har bir asari yosh kitobxon qalbida ezgulik, insoniylikning bir niholi ildiz otishiga xizmat qilsin. Ana shundagina bolalar adabiyoti o'z missiyasini muvaffaqiyat bilan ado etgan bo'ladi"- degan fikrlarini maqolasiga kiritadi. Darhaqiqat, farzandlarimizning kelajakda mard va jasur, ilmga tashna bo'lib yetishishlari uchun albatta, odob va axloq, sadoqat va Vatanga muhabbat nazmida yozilgan she'rlar, asarlarimizni ko'paytirmog'imiz lozim.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, U nafaqat bolalar yozuvchisi, balki xalqimizning bir qator insonlari uchun o'rnak bo'la oladigan shaxs hamdir. Uning ilmiy-ijodiy

merosi bolalar adabiyoti, she'riyati va adabiy jarayon tahliliga bag'ishlangan. Uning izlanishlarini o'rganar ekanmiz, u boshqa yozuvchilardak avval ijod qilgan yozuvchilar ijodini o'rganmadi. Aksincha, bolalar adabiyotini chuqur tahlil qildi va sinchiklab o'rgangan. Uning ilmiy faoliyati adabiyotning nazariy masalalari, she'riyatdagi mahorat va ijodkor psixologiyasini yoritishga qaratilgan.

Rahmatulla Barakayev filologiya fanlari doktori, professor hisoblanadi. Olim uzoq yillar davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida va boshqa ilmiy dargohlarda faoliyat yuritib, yuzlab shogirdlar yetishtirgan. R.Barakayev adabiyotshunosligimizda filolog bo'lib emas, shoirlarimiz o'z ijodlarida nimalarni ochib berishga harakat qilganliklarini maqola va risolalarida yoritib bergan adabiyotshunos olim sifatida ham hurmatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suvon M, "Rahmatulla Barakayev haqida". O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy o'flayn-onlayn anjumani.
2. Adabiyotimiz biografiyasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979.
3. Ochilov E, "Rahmatulla Barakayev hangomalari".
4. Nusratova, H.CH, Pardayev, B.O', Bolalar adabiyoti (darslik) , 2021.
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. (Darslik-majmua). – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
6. <http://tai.academy.uz>